

ILMIY-AMALIY  
ELEKTRON JURNAL



Iyul №7, 2026

Агробизнес, наука и  
технология

# AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and  
technology

№ 083688



ISSN:  
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &  
workflow by  
OJS / PKP

**BOSH MUHARRIR**

**Oblomurov Narzullo Naimovich** – i.f.d. (DSc), professor.

**Bosh muharrir o'rinbosarlari:**

**Islamov Soxib Yaxshibekovich** – q.x.f.d. (DSc), professor.

**Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich** – q.x.f.d. (DSc), professor.

**Farmonov To'liqin Xayitmurodovich** – i.f.d. (DSc), professor.

**Muharrir:**

**Beglayev Uchqun Xurramovich** – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

**Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:**

**Kusainov Xalel Xaymullayevich** – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

**Vilija Aleknevičienė** – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

**Gilbert Ludwig** – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

**Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich** – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

**Daiva Makutenene** – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

**Xaitboyeva Nargiza Alikulovna** – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

**Tahrir hay'ati:****08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

**Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich** – i.f.d. (DSc), professor;

**Saidov Muxammad-Ali Xakimovich** – i.f.d. (DSc), professor;

**Rustamova Iroda Baxramjanovna** – i.f.d. (DSc), professor;

**Ochilov Ilhom Sayitqulovich** – i.f.d. (DSc), professor;

**Askarov Nazimjon Niyozovich** – i.f.d. (DSc), professor;

**Abdullayev Altinbek Yangibayevich** – i.f.d. (DSc), professor;

**Boltayev Abror Sayitmuradovich** – i.f.d. (DSc), dotsent;

**Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich** – i.f.n. professor;

**Mamadiyarov Dilshad Uralovich** – i.f.n. dotsent;

**Achilov Mashrab Ulug'bekovich** – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

**Galimova Feryuza Rafikovna** – i.f.n. dotsent;

**Odilova Dilnozaxon Barnayevna** – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

**Yangiboyev Dilshod G'ulomovich** – i.f.f.d. (PhD);

**Saidova Dildora Nurmatovna** – i.f.n. dotsent;

**Dexkanova Nilufar Sagdullayevna** – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

**Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li** – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

**Boltayev Nurali Shiramatovich** – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

**Ibragimova Madina Ismoilovna** – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

**Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li** – i.f.f.d. (PhD).

**06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:**

**Shokirov Alisher Djuraboyevich** – q.x.f.d. (DSc), professor;

**Mardanov Husniddin Xolbozorovich** – q.x.f.d. (DSc);

**Abdiyev Fozil Rashidovich** – q.x.f.d. (DSc);

**Sattorov Maqsud Axtamovich** – q.x.f.d. (DSc);

**Yuldashov Nurbek Ergashovich** – v.f.d. (DSc);

**Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich** – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

**Namazov Ixtiyor Choriyevich** – q.x.f.d. (DSc), professor;

**Xudayqulov Jonibek Bozarovich** – q.x.f.d. (DSc), professor;

**Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li** – q.x.f.d. (DSc), professor;

**Abdullayev Anvar Kodirullayevich** – b.f.n., katta ilmiy xodim;

**Atabayev Ma'ruf Maxmudovich** – q.x.f.n. professor;

**Safarov Asqar Asadullayevich** – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

**Mustafakulov Davron Mamatqulovich** – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

**Kasimov Botir Sadriddinovich** – q.x.f.f.d. (PhD);

**Akramov Umiddilla Ikramdjanovich** – q.x.f.n. dotsent;

**Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li** – q.x.f.f.d. (PhD);

**Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li** – q.x.f.f.d. (PhD);

**Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna** – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

**Idrisov Xusanjon Abdujabborovich** – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

**MUASSIS**

Toshkent davlat agrar  
universiteti

**ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR**

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

[t.me/agrobiznes\\_elektronjurnal](https://t.me/agrobiznes_elektronjurnal)

E-mail: [licht-1989@mail.ru](mailto:licht-1989@mail.ru)

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

**Jurnalning ilmiyligi:**

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 30.11.2024-yildagi  
№364/5-sonli qarori bilan  
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari  
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi  
№370/5-sonli qarori bilan  
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari  
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy  
ilmiy natijalarini chop etish  
tavsiya etilgan milliy ilmiy  
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

**Elektron nashr, 673 sahifa.**

E'lon qilishga 2026-yil 30-iyulda  
ruxsat etildi.





## MUNDARIJA

### IQTISODIYOT FANLARI

#### **MATRASULOVA FERUZA BAXODIROVNA**

Sho'rlangan marginal yerlarda sholi yetishtirishning iqtisodiy va agroekologik jihatlari (Xorazm viloyati misolida).....9

#### **KOZIMJONOV ABRORBЕК**

Suv ta'minot va hudud gaz ta'minot korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq daromad va xarajatlarni tan olish masalalari.....16

#### **KALIMULLINA NARGIZA VLADIMIROVNA**

Sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish.....24

#### **RAXMATULLAYEV JALOLIDDIN MUXIDDINOVICH**

Davlat xaridlarini samarali tashkil etish orqali byudjet mablag'larini tejash yo'llari.....30

#### **ISMAYLOV SIROJIDDIN ISOQOVICH**

O'zbekistonda yuridik shaxslar tomonidan foyda solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.....42

#### **TURGUNOV ABDULLOH QUDRATBEK O'G'LI**

Korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholashda foyda va rentabellik ko'rsatkichlari.....49

#### **ABDUBOQIYEV MUXAMMAD SHAROFITDINOVICH**

Efficiency indicators of financial management mechanisms in joint-stock companies.....55

#### **ZOHIDOV JAMSHID BOTIRXONOVICH**

Xizmat ko'rsatish korxona menejmentida axborot texnologiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....63

#### **ACHILOVA FIRUZA KURBANOVNA, PARDAYEV ORIFJON**

#### **CHARSHAMIYEVICH**

Qashqadaryo viloyatida raqamli infratuzilma va sanoat ishlab chiqarishning hozirgi holati tahlili.....71

#### **UMAROVA ROXILAXON XALILJON QIZI**

Mahalla tizimida madaniy loyihalarni boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....80

#### **ATABAYEVA KAROMAT RAJABOVNA**

Demografik jarayonlarni o'rganishning nazariy asoslari.....88

#### **URALOV FARRUH ABDURAZZOQOVICH**

Hududiy klaster siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari.....95

#### **G'IYOSOV ILXOM KARIMOVICH**

Korporativ boshqaruv mexanizmlarining qurilish korxonalarida strategik qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'siri.....109

#### **ANVAROVA LOBARXON SHERZOD QIZI**

Sun'iy intellekt asosida strategik va operatsion boshqaruvni optimallashtirish mexanizmlari.....119





**SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH**

Valyuta kursi barqarorligini ta'minlashda monetar siyosat vositalarining roli va uning mehnat bozori dinamikasiga ta'siri.....131

**KARIMOV INOMJON ORTIKBAEVICH**

Qurilish sanoati korxonalarida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini boshqarishning nazariy asoslarini takomillashtirish.....140

**ERKAYEV AKROM NORMUXAMMADOVICH**

Milliy iqtisodiyotni sanoatlashuvning nazariy evolyutsiyasi.....150

**AXMEDOVA NILUFAR SHUHRATOVNA, RISBEKOVA DILFUZAXON**

**JALOLIDIN QIZI**

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda hududiy jihatlari hamda davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari.....163

**SHARIPOV G'ULOMJON QARSHI O'G'LI**

Yashil iqtisodiyot sharoitida hududiy boshqaruvning xorijiy tajribasi va O'zbekistonda qo'llash istiqbollari.....169

**SAPAROV ILYOS XUDAYMURATOVICH**

Jamoatchilik ishonchi va ijro mas'uliyati: «Tashabbusli byudjet»ning yangi bosqichdagi vazifalari.....179

**MURTOZAYEVA DILNOZA BOBONIYOZ QIZI**

O'zbekiston sharoitida oziq-ovqat bozori marketing tadqiqotlarini o'tkazishda raqamlashtirish jarayonining afzalliklari.....184

**ТАДЖИЕВА САЙЁРАХОН УРАЛОВНА**

Маркетинговая привлекательность Бухарской области и факторы её формирования.....193

**G'OFUROV BEKZOD FAYZULLA O'G'LI**

Davlat budjeti mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratni kuchaytirish yo'llari.....208

**USMONOVA MOHIGUL MANSUR QIZI**

Yashil iqtisodiyot va ayollar tadbirkorligi rivojlanishining nazariy-konseptual asoslari.....214

**ESHQULOVA NASIBA NORMO'MINOVNA**

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini diversifikatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari.....223

**KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH**

Mavsumiy mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarda samaradorlikni baholashning nazariy-uslubiy yondashuvlari.....234

**TADJIYEVA SAYYORAXON URALOVNA**

Hudud marketing kapitalining nazariy asoslari va konseptual modeli.....240

**SHAMSIKULOVA MOXINA BONU FURKATOVNA**

Tibbiy xizmatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirishning xorij tajribasi.....254

**HAMIDOV RUSHAN ERKINOVICH**

Oliy ta'limda iqtisodiy fanlarni o'qitish orqali talabalarning moliyaviy madaniyatini yuksaltirish.....261

**SADIKOVA MUSLIMA ALISHER KIZI**

Implementation of international standards in the corporate governance system of joint-stock companies of Uzbekistan.....270





### **XAMDAMOV SARDOR FARMON O'G'LI**

Davlat xaridlarining moliyaviy mexanizmi: tushunchasi, tarkibiy elementlari va amal qilish tamoyillari.....276

### **SHAMSIDINOVA ZILOLAXON MAXMUDJON QIZI, MITILLAYEV IBROHIMJON**

Diversifikatsiyalanayotgan bank resurslarida likvidlikni boshqarish.....281

### **HAMIDOV RUSHAN ERKINOVICH**

Ta'lim – moliyaviy savodxonlikni oshirishning asosiy vositasi sifatida: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar.....290

### **TOXIROV JAVLON RAXIMOVICH**

Buxoro viloyati bo'yicha ko'rsatilgan savdo xizmatlari hajmiga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik modellashtirish.....299

### **ТЛЕУМУРАТОВА БАХАДИРА ГЕНЖЕМУРАТОВИЧА**

Развитие и повышение эффективности сферы услуг (на примере Республики Каракалпакстан).....314

### **ISOQOV HASAN ABDUXALIMOVICH**

Mintaqada oziq-ovqat sanoatini innovatsion rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....324

### **TOXIROV JAVLON RAXIMOVICH**

Buxoro viloyati bo'yicha ko'rsatilgan savdo xizmatlari hajmi va unga ta'sir etuvchi omillar dinamikasini iqtisodiy prognozlash.....335

### **G'ULOMOVA SHAXLO BAXTIYOR QIZI**

Improving strategic and operational management of construction projects in uzbekistan: a conceptual adaptation of a hybrid model.....348

### **IMOMJON KHAMIDOV**

Public perceptions of environmental risks and willingness to pay for environmental protection: evidence from Uzbekistan and Central Asia.....355

### **ШУКУРОВА ШАХЗОДА ДЖАЛОЛОВНА**

Влияние инфляционных процессов на развитие внешней торговли Республики Узбекистан.....365

### **ABDILXATOV ULUG'BEK ABDULQUDDUS O'G'LI**

O'zbekiston bank tizimida islom investitsiya mahsulotlarini joriy etishning korxonalar faoliyati samaradorligiga ta'siri.....375

### **ESHTEMIROVA MA'RIFAT AKRAM QIZI**

Digital transformation of the banking sector and financial inclusion in Uzbekistan.....383

### **JUMAQULOV TEMUR**

Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida mahsulot tannarxini kamaytirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llari.....391

### **RAXMATOVA JO'RAXONPOSHSHO QAXRAMON QIZI**

Ekoturizm subyektlarining innovatsion faoliyati: nazariy asoslari va boshqaruv mexanizmi.....397

### **TASHPULATOVA MUNIRAXON MAHMUDOVNA**

Korxonalarda risk boshqaruvi orqali xodimlar salohiyatidan samarali foydalanishni baholash usullari va modellari.....405





## O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA ISLOM INVESTITSIYA MAHSULOTLARINI JORIY ETISHNING KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

**ABDILXATOV ULUG'BEK ABDULQUDDUS O'G'LI**

Andijon davlat texnika instituti

Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti talabasi

E-mail: [abdulhatovulugbek@gmail.com](mailto:abdulhatovulugbek@gmail.com)

ORCID: 0009-0006-9345-8185

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada islom investitsiya mahsulotlarining real aktivlarga asoslanishi hamda risklarni adolatli taqsimlash tamoyillari asosida korxonalarni moliyalashtirishning muqobil va samarali mexanizmi sifatidagi ahamiyati yoritilgan. Xususan, murobaha, ijara, mushoraka va mudoraba shartnomalari orqali real sektor korxonalarini moliyalashtirishning iqtisodiy mohiyati hamda ularning asosiy vositalarni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, investitsion faollikni oshirish va korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, an'anaviy kreditlash tizimidan farqli ravishda, islom investitsiya mahsulotlarida daromadning real iqtisodiy faoliyat natijalari bilan bevosita bog'liqligi va moliyaviy risklarning tomonlar o'rtasida taqsimlanishi korxonalar faoliyatining samaradorligini oshiruvchi muhim omil ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** islom investitsiya mahsulotlari, korxonalarni moliyalashtirish, ishlab chiqarish samaradorligi, murobaha, ijara, mushoraka, mudoraba, asosiy vositalar, investitsion faollik, real sektor, risklarni taqsimlash, moliyaviy barqarorlik, islom darchasi.

**Аннотация.** В настоящей статье раскрывается значение исламских инвестиционных продуктов как альтернативного и эффективного механизма финансирования предприятий, основанного на принципах привязки к реальным активам и справедливого распределения рисков. В частности, проанализированы экономическая сущность финансирования предприятий реального сектора посредством договоров мурабаха, иджара, мушарака и мудараба, а также их роль в модернизации основных средств, расширении объемов производства, повышении инвестиционной активности и обеспечении финансовой устойчивости предприятий. Научно обосновано, что в отличие от традиционной системы кредитования, непосредственная связь дохода с результатами реальной экономической деятельности и распределение финансовых рисков между сторонами выступают важным фактором повышения эффективности деятельности предприятий.

**Ключевые слова:** исламские инвестиционные продукты, финансирование предприятий, эффективность производства, мурабаха, иджара, мушарака, мудараба, основные средства, инвестиционная активность, реальный сектор, распределение рисков, финансовая устойчивость, исламское окно.

**Abstract.** This article elucidates the significance of Islamic investment products as an alternative and effective mechanism for financing enterprises, grounded in the principles of linkage to real assets and the equitable distribution of risk. In particular, it analyses the economic essence of financing real-sector enterprises through murabaha, ijara, musharaka and mudaraba contracts, as well as their role in modernising fixed assets, expanding production volumes, enhancing investment activity and ensuring the financial stability of enterprises. It is scientifically substantiated that, unlike the conventional lending system, the direct linkage of income to the outcomes of real economic activity and the distribution of financial risks between the parties constitute an important factor in improving enterprise performance.

**Keywords:** islamic investment products, enterprise financing, production efficiency, murabaha, ijara, musharaka, mudaraba, fixed assets, investment activity, real sector, risk distribution, financial stability, Islamic window.





## KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va real sektor korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda investitsiya resurslarining yetarliligi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Investitsiyalar iqtisodiyot tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish hamda diversifikatsiya jarayonlarini chuqurlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirish, yangi ish o'rinlari yaratish, mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Natijada yalpi ichki mahsulot hajmi ortadi, korxonalarining moliyaviy barqarorligi mustahkamlanadi va mamlakatning eksport salohiyati yuksaladi.

Tijorat banklari faoliyatida investitsiya kreditlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular orqali ishlab chiqarish quvvatlari yangilanadi, yangi texnologiyalar joriy etiladi va iqtisodiyotning real sektorida tarkibiy o'zgarishlar yuz beradi. Shu bilan birga, islom moliyasi aktivlarga asoslangan, axloqiy, barqaror va ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli moliya turi bo'lib, u risklarni taqsimlashni rag'batlantiradi hamda moliya sektorini real iqtisodiyot bilan bevosita bog'laydi. Islom moliyasida har bir bitim haqiqiy iqtisodiy faoliyatga tayanishi shart bo'lib, foiz (ribo), qimor (maysir) hamda haddan ortiq noaniqlik va spekulatsiya (g'arar) unsurlari qat'iy man etiladi. Bunday yondashuv korxona uchun moliyalashtirish shartlarining oldindan aniqligini ta'minlaydi va risk yukini tomonlar o'rtasida mutanosib taqsimlaydi.

O'zbekistonda mazkur yo'nalishdagi amaliy qadamlar 2003-yilda mamlakatning Islom taraqqiyot bankiga a'zo bo'lishi bilan boshlangan bo'lib, 2004-yilda energetika va sog'liqni saqlash sohalaridagi loyihalar ijara hamda murobaha shartnomalari asosida moliyalashtirilgan. Huquqiy bazani shakllantirish masalasi esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis palatalariga 2020-yil dekabrda Murojaatnomasida alohida ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1]. Ayni vaqtda bir qator tijorat banklarida "islom darchalari" tamoyili asosida yuridik shaxslarni moliyalashtirish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Mazkur holat islom investitsiya mahsulotlarining korxonalar faoliyati samaradorligiga ta'sirini ilmiy jihatdan o'rganish dolzarbligini belgilaydi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Islom moliyasi va uning real sektorni moliyalashtirishdagi o'rni xorijiy hamda mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. R. Wilson tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda islom moliya institutlarining g'arb mamlakatlari moliya bozorlariga integratsiyalashuvi va murobaha tamoyiliga asoslangan xalqaro savdo amaliyotlari tahlil qilingan [3]. Xalqaro standartlashtiruvchi tashkilotlar — Islom moliya institutlari uchun buxgalteriya va audit tashkiloti (AAOIFI) hamda Islom moliyaviy xizmatlari kengashi (IFSB) tomonidan ishlab chiqilgan me'yorlar islom moliya mahsulotlarining shartnomaviy tuzilmasi va risk taqsimoti bo'yicha metodologik asos yaratgan.





Banklarning investitsion faoliyatini talqin qilishda iqtisodiy adabiyotlarda turlicha yondashuvlar mavjud. Ayrim mutaxassislar bank investitsiyalarini asosan moliyaviy aktivlarga, ya'ni qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan mablag'lar bilan bog'laydilar; bu klassik yondashuv hisoblanadi. Boshqa yondashuvda bank investitsiyalari kengroq talqin qilinib, bankning ichki rivojlanishi uchun yo'naltirilgan sarmoyalari va texnologik yangilanish xarajatlari ham mazkur toifaga kiritiladi [4]. Murosa xarakteridagi yondashuvga ko'ra esa bankning investitsion faoliyati bank resurslarining ishlab chiqarish va daromad keltiruvchi loyihalarga yo'naltirilishi bilan belgilanadi. Amaliyotda tijorat banklarining investitsion faoliyati uchta asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi: qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish, investitsion kreditlar ajratish va investitsiya loyihalarini moliyalashtirish. Andijon davlat texnika instituti dotsenti A.A.Umarov tomonidan tayyorlangan tadqiqotlarda islom investitsiya mahsulotlarining iqtisodiy mexanizmi bank investitsion faoliyati kontekstida yoritilgan hamda murobaha, ijara, mushoraka, mudoraba, salam, istisno va sukuk mahsulotlarining daromad manbai va risk xususiyatlari tizimlashtirilgan [5].

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Maqolani tayyorlashda ilmiy abstraksiya, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, guruhlash, mantiqiy umumlashtirish hamda hisob-kitob-analitik usullardan foydalanilgan. Islom investitsiya mahsulotlarining iqtisodiy xususiyatlari qiyosiy jadval usulida tizimlashtirilgan. Korxonaning moliyaviy yukini baholashda murobaha shartnomasi bo'yicha sotish narxi va an'anaviy annuitet kredit bo'yicha to'lov modellari qiyoslangan. Axborot bazasi sifatida O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari, tijorat banklarining rasmiy ma'lumotnomalari, xalqaro moliya institutlarining hisobotlari hamda mavzuga oid ilmiy adabiyotlar xizmat qilgan.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Islom moliyasida daromad real aktiv, savdo, ijara yoki tadbirkorlik riskini qabul qilish bilan bog'liq bo'lishi shart. Shartnomada narx, aktiv, muddat va tomonlarning majburiyatlari aniq belgilanadi; foizga, haddan tashqari noaniqlikka hamda taqiqlangan faoliyatga asoslangan operatsiyalarga yo'l qo'yilmaydi. Ushbu tamoyil korxona uchun ikki jihatdan ahamiyatlidir: birinchidan, moliyalashtirish shartlari shartnoma tuzilgan paytdan boshlab o'zgarmas bo'lib qoladi va bu rejalashtirish aniqligini oshiradi; ikkinchidan, mablag'ning maqsadli sarflanishi shartnoma tuzilmasining o'zi bilan kafolatlanadi, ya'ni resurs bevosita asosiy vosita, uskuna yoki xomashyo ko'rinishida korxonaga yetib boradi [6].

Tayyor aktivni xarid qilish uchun murobaha, uskunadan foydalanish uchun ijara, qurilish va buyurtma asosidagi ishlab chiqarish uchun istisno, aylanma tovar uchun salam, tadbirkorlik foyda va riskini bo'lishish uchun esa mushoraka yoki mudoraba shartnomalari qo'llaniladi. Bunday differentsiatsiya korxonaga o'z





investitsiya ehtiyojining xarakteriga eng mos moliyalashtirish shaklini tanlash imkonini beradi.

### 1-jadval

#### Islom investitsiya mahsulotlarining iqtisodiy va risk xususiyatlari

| Mahsulot        | Asosiy bitim                                   | Daromad manbai                 | Asosiy risk                                  |
|-----------------|------------------------------------------------|--------------------------------|----------------------------------------------|
| Murobaha        | Bank aktivni olib, ustama bilan sotadi         | Oldindan ma'lum savdo ustamasi | Aktivga egalik qilish va mijoz to'lovi riski |
| Ijara           | Aktivdan foydalanish huquqi beriladi           | Ijara to'lovi                  | Mulk, texnik holat va bo'sh turish riski     |
| Mushoraka       | Tomonlar kapital qo'shadi                      | Kelishilgan foyda ulushi       | Biznes zarari kapitalga mutanosib            |
| Mudoraba        | Bir tomon kapital, biri boshqaruv beradi       | Foyda kelishilgan nisbatda     | Tadbirkorlik va agentlik riski               |
| Salam / istisno | Kelajak tovar yoki ishlab chiqarish buyurtmasi | Savdo narxi farqi              | Yetkazib berish va sifat riski               |
| Sukuk           | Aktiv yoki loyiha ulushi                       | Aktiv daromadi                 | Aktiv, bozor va tuzilma riski                |

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, har bir mahsulotda risk manbai aniq belgilangan iqtisodiy hodisaga — aktivga egalik, uning texnik holati, yetkazib berish yoki tadbirkorlik natijasiga — bog'lanadi. An'anaviy kreditlashda esa risk asosan qarz oluvchi zimmasiga yuklanadi. Bu farq korxonaning risk yukini yengillashtiruvchi asosiy institutsional omil hisoblanadi.

Murobaha shartnomasida mijozga sotish narxi quyidagi formula asosida shakllanadi:

$$Psale = C + M, \quad (1)$$

bunda Psale — mijozga sotish narxi; C — bankning aktivni xarid qilish tannarxi; M — oldindan kelishilgan ustama. Narx shartnoma tuzilgandan keyin aniq bo'lib qoladi va keyinchalik o'zgarmaydi.

Ijara shartnomasida davriy to'lov quyidagicha hisoblanadi:

$$Rijara = (C - S) / n + O, \quad (2)$$

bunda Rijara — davriy ijara to'lovi; C — aktiv qiymati; S — muddat oxiridagi qoldiq qiymat; n — davrlar soni; O — mulkdorga tegishli xarajat va kelishilgan foyda komponenti [3].

Moliyalashtirish yukining korxona iqtisodiyotiga ta'sirini baholash uchun ikki muqobil variantni qiyoslash maqsadga muvofiqdir. An'anaviy annuitet kredit bo'yicha to'lov WACC va foizlarni qoplash koeffitsiyenti ( $ICR = EBIT / Interest$ ) orqali baholanadi. Murobaha shartnomasida esa to'lov ustama qiymatning muddatga teng bo'lib taqsimlanishi orqali shakllanadi. Quyidagi jadvalda ikkala variant shartli ma'lumotlar asosida qiyoslangan [7].





## 2-jadval

### An'anaviy kredit va murobaha asosidagi moliyalashtirishning shartli qiyosiy hisob-kitobi

| Ko'rsatkich              | An'anaviy annuitet kredit   | Murobaha shartnomasi      |
|--------------------------|-----------------------------|---------------------------|
| Moliyalashtirish summasi | 1 000 mln so'm              | 500 mln so'm              |
| Stavka / ustama          | 18 % yillik                 | 15 % ustama               |
| Muddat                   | 3 yil                       | 24 oy                     |
| Davriy to'lov            | 459,9 mln so'm (yillik)     | 23,96 mln so'm (oylik)    |
| Jami to'lov              | 1 379,8 mln so'm            | 575 mln so'm              |
| Qo'shimcha moliyaviy yuk | 379,8 mln so'm (37,98 %)    | 75 mln so'm (15,0 %)      |
| Yukning o'zgaruvchanligi | Stavka o'zgarishiga bog'liq | Shartnoma bo'yicha qat'iy |

2-jadval ma'lumotlari korxona uchun ikki muhim natijani ko'rsatadi. Birinchidan, murobaha shartnomasida qo'shimcha moliyaviy yuk asosiy summaning qat'iy belgilangan ulushini tashkil etadi va murakkab foiz mexanizmi qo'llanilmaydi. Ikkinchidan, kechikish holatida undiriladigan to'lov bank foydasiga aylanmaydi, bu esa qarz yukining o'z-o'zidan o'sib borishi ehtimolini bartaraf etadi. Natijada korxona pul oqimlarini uzoq muddatga aniq rejalashtirish, foiz stavkasi riskidan himoyalaniish va investitsiya loyihasining qaytim muddatini ishonchli baholash imkoniga ega bo'ladi.

Islom investitsiya mahsulotlarining korxonalar faoliyatiga ta'sirini bir necha yo'nalishda ajratib ko'rsatish mumkin. Asosiy vositalarni modernizatsiya qilish yo'nalishida murobaha va ijara shartnomalari bevosita uskuna, transport vositasi yoki ishlab chiqarish liniyasini korxona ixtiyoriga o'tkazadi [5]. Bu resursning boshqa maqsadlarga sarflanish ehtimolini istisno etadi va investitsiya samaradorligini oshiradi. Ishlab chiqarish hajmini kengaytirish yo'nalishida salam va istisno shartnomalari aylanma mablag' hamda buyurtma asosidagi ishlab chiqarishni moliyalashtirish imkonini beradi.

Investitsion faollikni oshirish yo'nalishida mushoraka va mudoraba shartnomalari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu shartnomalarda bank kapital sherigi sifatida ishtirok etgani bois loyihaaning muvaffaqiyatidan bevosita manfaatdor bo'ladi va bu monitoring hamda maslahat xizmatlari sifatini oshiradi. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash yo'nalishida esa risklarning tomonlar o'rtasida taqsimlanishi korxonaning qarz yukini yengillashtiradi, zarar holatida moliyaviy majburiyat kapitaldagi ulushga mutanosib ravishda taqsimlanadi va korxona to'liq zarar yukini yolg'iz ko'tarmaydi.





### 3-jadval

#### Islom investitsiya mahsulotlarining korxona faoliyati ko'rsatkichlariga ta'siri

| Ta'sir yo'nalishi               | Qo'llaniladigan mahsulot | Korxona uchun kutilayotgan natija                               |
|---------------------------------|--------------------------|-----------------------------------------------------------------|
| Asosiy vositalarni yangilash    | Murobaha, ijara          | Uskunaning maqsadli yetkazilishi, texnologik darajaning o'sishi |
| Ishlab chiqarishni kengaytirish | Istisno, salam           | Aylanma mablag' ta'minoti, buyurtma hajmining ortishi           |
| Investitsion faollik            | Mushoraka, mudoraba      | Kapital sherigi ishtiroki, loyiha monitoringi sifati            |
| Moliyaviy barqarorlik           | Barcha mahsulotlar       | Qat'iy to'lov yuki, foiz stavkasi riskidan himoya               |
| Resurs bazasini kengaytirish    | Sukuk                    | Muqobil kapital bozoriga chiqish imkoniyati                     |

O'zbekistonda mazkur yo'nalishdagi huquqiy asoslarni shakllantirish jarayoniga 2026-yil 27-martda "O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1126-son Qonun imzolangan bo'lib, u rasman e'lon qilinganidan uch oy o'tgach — 2026-yil 29-iyundan e'tiboran kuchga kirdi [2]. Hujjat milliy qonunchilikka ilk bor "islomiy bank faoliyati", "islomiy moliya operatsiyalari", "islomiy moliya standartlari" va "investitsiyaviy omonat" tushunchalarini kiritdi. Islomiy bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya joriy etilib, uni olish bo'yicha aniq talablar belgilandi.

### 5-jadval

#### Islomiy moliya operatsiyalari va ularning korxonalar faoliyatida qo'llanilishi

| Operatsiya | Qonunda belgilangan mazmuni                                            | Korxona faoliyatida qo'llanilishi                                   |
|------------|------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------|
| Murobaha   | Tovarni bo'lib-bo'lib to'lash orqali moliyalashtirish                  | Asosiy vositalar, uskuna va xomashyo xaridi                         |
| Ijara      | Islomiy ijara (lizing), keyinchalik sotib olish huquqi bilan           | Ishlab chiqarish uskunasi va transportdan foydalanish               |
| Mushoraka  | Sheriklik yoki ustav kapitalida ishtirok etish orqali moliyalashtirish | Yangi loyihaga birgalikda kapital jalb qilish                       |
| Muzoraba   | Foydani taqsimlash asosida moliyalashtirish                            | Tadbirkorlik loyihasini boshqaruv sherikligi bilan moliyalashtirish |
| Salam      | Oldindan to'lov asosida moliyalashtirish                               | Aylanma mablag' va kelgusi mahsulot ishlab chiqarish                |
| Vakala     | Agentlik shartnomasi orqali mablag' jalb qilish yoki joylashtirish     | Resurslarni vositachilik asosida boshqarish                         |





Shuningdek, islomiy moliya operatsiyalarini soliqqa tortishning o'ziga xos tartibi ham belgilandi. Qonunga muvofiq banklar oltita turdagi islomiy moliya operatsiyasini amalga oshirish huquqiga ega bo'ldi (5-jadval).

### **XULOSA**

Olib borilgan tahlil islom investitsiya mahsulotlarining real aktivga bog'liqlik, shartnoma shartlarining aniqligi va riskni iqtisodiy faoliyat bilan uyg'unlashtirish tamoyillariga asoslanishini ko'rsatdi. Ushbu tamoyillar mazkur mahsulotlarni an'anaviy kreditlash amaliyotidan sifat jihatidan ajratib turadi va ularning korxonalar faoliyatiga ta'sir mexanizmini belgilaydi. Mahsulotlarning shartnomaviy tuzilmasi tahlili shuni ko'rsatdiki, islom moliyasida har bir vosita aniq belgilangan iqtisodiy hodisaga — aktivga egalik qilish, uning texnik holati, yetkazib berish yoki tadbirkorlik natijasiga — bog'lanadi. An'anaviy kreditlashda risk asosan qarz oluvchi zimmasiga yuklansa, islom investitsiya mahsulotlarida u tomonlar o'rtasida taqsimlanadi. Bu farq korxonaning risk yukini yengillashtiruvchi asosiy institutsional omil sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur xususiyatlar korxona darajasida uchta amaliy natijaga olib keladi: pul oqimlarini uzoq muddatga aniq rejalashtirish imkoniyati, foiz stavkasi riskidan himoyalash hamda investitsiya loyihasining qaytim muddatini ishonchli baholash. Sheriklikka asoslangan mushoraka va mudoraba shartnomalarida esa zarar yukining kapitaldagi ulushga mutanosib taqsimlanishi korxonaning defolt riskini pasaytiradi.

Islom investitsiya mahsulotlarining korxonalar faoliyati samaradorligiga ta'siri to'rt asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi. Asosiy vositalarni modernizatsiya qilishda murobaha va ijara shartnomalari resursning uskuna yoki ishlab chiqarish liniyasi ko'rinishida bevosita korxonaga yetib borishini ta'minlaydi va uning boshqa maqsadlarga sarflanish ehtimolini istisno etadi. Ishlab chiqarish hajmini kengaytirishda salam va istisno shartnomalari aylanma mablag' hamda buyurtma asosidagi ishlab chiqarishni moliyalashtiradi. Investitsion faollikni oshirishda bankning kapital sherigi sifatidagi ishtiroki loyiha monitoringi va maslahat xizmatlari sifatini kuchaytiradi. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda esa risklarning taqsimlanishi korxonaning qarz yukini yengillashtiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalariga Murojaatnomasi. – Toshkent, 2020-yil dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi O'RQ-1126-son "O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2026.
3. Wilson R. Banking and Finance in the Arab Middle East. – London: Macmillan, 1983. – 208 p.





4. Imamnazarov J. Islom moliya tizimi imkoniyatlaridan O'zbekiston iqtisodiyotida foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent, 2023.

5. Umarov A.A., Banklarning investitsion faoliyati: o'quv qo'llanma. – Andijon davlat texnika instituti, 2026. – 152 b.

6. Bank xizmatlari orqali korxona va tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshirish Abdilxatov U.A. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot ilmiy jurnali 6-maxsus son, 2025

7. Kaxarova Z.A. O'zbekistonda islom moliyasini joriy etish zaruriyati va yo'llari // Iqtisodiyot va ta'lim. – Toshkent, 2023.



**2026-yil, iyul. №7-son.**

**Mas'ul muharrir:** Beglayev Uchqun

**Musahhih:** Boltayev Nurali

**Sahifalovchi va dizaynerlar:** Normurodov Sarvar,  
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [licht-1989@mail.ru](mailto:licht-1989@mail.ru)

Jurnalning telegram manzili: [t.me/agrobiznes\\_elektronjurnal](https://t.me/agrobiznes_elektronjurnal)

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №083688**

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,  
Universitet ko'chasi, 2-uy**